INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

NIKOHNING ONTOLOGIK TALQINI – ETNIK MENTALITET BELGISI

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti Tarix fakulteti
2- kurs talabasi ***Ne'matullayev Bobur***
e-mail:Nematullayevbobur90@gmail.com
Tel:+998-95-456-00-90

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlarning turmush o'rtog'ini tanlash haqidagi tasavvurlari antropologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot 50 nafar respondent ishtirokida onlayn so'rovnoma shaklida o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, yoshlar nikohni asosan hayotiy barqarorlik va ma'naviy institut sifatida qabul qiladilar. Tanlov jarayonida xarakter, oila tarbiyasi va diniylik muhim omillar sifatida namoyon bo'ldi. Biroq ota-ona legitimatsiyasi va jamiyat bosimi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda nikoh masalasida individualizm va kollektivizm o'rtasidagi "muzokarali model" shakllanayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Nikoh, yoshlar, antropologiya, qarindoshlik tizimi, gender rollari, individualizm, kollektivizm, ijtimoiy bosim, O'zbekiston.

Аннотация. В данной статье на основе антропологического подхода анализируются представления молодежи Узбекистана о выборе супруга. Исследование проводилось в форме онлайн-анкеты с участием 50 респондентов. Результаты показали, что молодые люди воспринимают брак в основном как обеспечение стабильности жизни и духовный институт. Важными факторами в процессе выбора были названы характер, семейное воспитание и религиозность. Однако решающее значение также имели поддержка родителей и социальное давление. Результаты исследования указывают на то, что в Узбекистане формируется «переговорная модель» между индивидуализмом и коллективизмом в отношении брака.

Ключевые слова: брак, молодежь, антропология, система родства, гендерные роли, индивидуализм, коллективизм, социальное давление, Узбекистан.

Abstract. This article analyzes the perceptions of young people in Uzbekistan about choosing a spouse based on an anthropological approach. The study was conducted in the form of an online questionnaire with the participation of 50 respondents. The results showed that young people perceive marriage mainly as a life stability and a spiritual institution. Character, family upbringing and religiosity were shown as important factors in the selection process. However, parental legitimation and societal pressure were also found to be of decisive importance. The results of the study indicate that a "negotiated model" between individualism and collectivism is being formed in Uzbekistan regarding marriage.

Keywords: Marriage, youth, anthropology, kinship system, gender roles, individualism, collectivism, social pressure, Uzbekistan.

Kirish

Nikoh insoniyat tarixida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy institut sifatida ham markaziy o'rin egallab kelgan. Antropologiyada nikoh qarindoshlik tizimining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilinadi[1]. Zamonaviy jamiyatlarda esa nikoh tobora individual tanlov maydoniga aylanmoqda.

O'zbekiston sharoitida nikoh masalasi an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar kesishgan nuqtada joylashgan. Bir tomondan, ota-ona roli, qarindoshlik aloqalari va jamiyat bosimi muhim bo'lib qolmoqda. Ikkinchi tomondan, yoshlar orasida shaxsiy tanlov, sevgi va o'zini anglash omillari kuchaymoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — yoshlarning turmush o‘rtog‘ini tanlash haqidagi tasavvurlarini antropologik nuqtai nazardan tahlil qilish va ularning qarashlarida qanday madaniy model ustuvorligini aniqlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili :

Nikoh antropologik tadqiqotlarda qarindoshlik tizimi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilgan. K. Levi-Stross nikohni ayirboshlash tizimi sifatida talqin qilib, u ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash mexanizmi ekanini ta’kidlaydi.

B. Malinovskiy esa nikohni biologik ehtiyojlardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy barqarorlik instituti sifatida ko‘radi[3]. Zamonaviy sotsiologik-antropologik yondashuvlarda esa individualizatsiya jarayoni kuchayib borayotgani qayd etiladi

Markaziy Osiyo kontekstida olib borilgan tadqiqotlar nikoh masalasida ota-ona roziligi va qarindoshlik tizimi hanuz kuchli omil ekanini ko‘rsatadi[5]. Shu bilan birga, urbanizatsiya va migratsiya yoshlar qarashlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur tadqiqot yuqoridagi nazariy yondashuvlarni O‘zbekiston yoshlarining empirik ma’lumotlari bilan bog‘lashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqot sifat-mazmuniy (qualitative interpretative) yondashuv elementlari bilan boyitilgan kvantitativ so‘rovnoma asosida olib borildi. Ma’lumotlar Google Forms platformasi orqali yig‘ildi.

Tadqiqotda 50 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning:

- 78% i 18–20 yosh oralig‘ida,
- jinsiy tarkibi deyarli teng (25 erkak, 24 ayol),
- yashash joyi bo‘yicha katta shaharlar ustunlik qiladi.

Savollar variantli shaklda tuzilgan bo‘lib, ularning maqsadi statistik ko‘rsatkichlardan ko‘ra madaniy tasavvurlarni aniqlash edi.

Tahlil va natijalar.

Mazkur tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma O‘zbekistonda yoshlarning nikoh va turmush o‘rtog‘ini tanlash haqidagi tasavvurlari qanday shakllanayotganini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda jami 50 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning asosiy qismi 18–20 yosh oralig‘ida bo‘lib, bu natijalar ayniqsa yosh avlod qarashlarini tahlil qilish imkonini beradi. Respondentlar jinsiy jihatdan deyarli teng taqsimlangan bo‘lib, ular turli hududlarda yashovchi yoshlarni qamrab oldi. Bu esa tadqiqot natijalarini nisbatan xilma-xil ijtimoiy muhitga tatbiq etish imkonini beradi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning muhim qismi nikohni avvalo hayotiy barqarorlik va ijtimoiy tartib bilan bog‘lagan. Bu holat nikoh institutining faqat romantik munosabat sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini mustahkamlovchi mexanizm sifatida idrok qilinayotganini ko‘rsatadi. Antropologiyada nikohning bunday talqini keng tarqalgan bo‘lib, funksionalistik yondashuvga ko‘ra nikoh jamiyatning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Ushbu qarashni ilgari surgan Bronislav Malinovski nikoh va oila jamiyat barqarorligini ta’minlovchi muhim institut ekanini ta’kidlaydi.[1] Uning fikricha, nikoh orqali jamiyatda ijtimoiy tartib saqlanadi, avlodlar davomiyligi ta’minlanadi va madaniy qadriyatlar yangi avlodga uzatiladi.

Tadqiqot natijalarida ham yoshlar nikohni barqaror hayot qurish vositasi sifatida talqin qilgani aynan shu funksionalistik yondashuvni tasdiqlaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yoshlar romantik munosabatlarni muhim deb bilsalar ham, nikohni faqat hissiy qaror sifatida emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy institut sifatida qabul qilmoqda.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning bir qismi nikohning asosiy sababi sifatida sevgi va shaxsiy yaqinlikni ko‘rsatgan. Bu esa zamonaviy jamiyatlarda shaxsiy munosabatlarning transformatsiyasi bilan bog‘liq jarayonlarni aks ettiradi. Zamonaviy sotsiologiya va antropologiyada romantik sevgi va shaxsiy tanlov asosidagi nikoh modeli keng tarqalib borayotgani ta’kidlanadi.

[1] Bronisław Malinowski. The Family among the Australian Aborigines. London: University of London Press, 1913.

Bu jarayonni tahlil qilgan Antony Giddens zamonaviy jamiyatlarda intim munosabatlar tobora ko‘proq shaxsiy tanlov va o‘zaro hissiy yaqinlik asosida shakllanayotganini ta’kidlaydi.[2] Giddensga ko‘ra, kech modern jamiyatlarda nikoh endi faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy zarurat emas, balki shaxsiy identitet va o‘zini anglash jarayonining bir qismiga aylanmoqda. Tadqiqot natijalarida ham yoshlar turmush o‘rtog‘ini tanlashda shaxsiy sifatlar va hissiy moslikka katta ahamiyat berishi aynan shu jarayon bilan izohlanishi mumkin.

So‘rovnoma natijalari turmush o‘rtog‘ini tanlash mezonlari haqida ham muhim ma’lumotlar berdi. Respondentlarning katta qismi xarakter, muomala madaniyati va tarbiya kabi omillarni eng muhim mezon sifatida belgilagan. Bu holat yoshlar uchun turmush o‘rtog‘ining shaxsiy fazilatlari moddiy yoki tashqi omillardan ko‘ra muhimroq ekanini ko‘rsatadi. Bu natijani antropologik nuqtai nazardan talqin qilganda, nikoh tanlovi faqat shaxsiy hissiyotlar bilan emas, balki madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlar bilan ham bog‘liq ekanini ko‘rish mumkin. Ko‘plab antropologik tadqiqotlarda nikoh tanlovi jamiyatning axloqiy va madaniy tizimi bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

So‘rovnoma natijalarida oila kelib chiqishi ham muhim mezon sifatida qayd etildi. Respondentlarning katta qismi turmush o‘rtog‘ining oilasi, tarbiyasi va ijtimoiy kelib chiqishini muhim deb hisoblagan. Bu esa nikoh tanlovida qarindoshlik tizimi hanuz muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Qarindoshlik tizimi antropologiyaning eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Klod Levi-Stross nikohni qarindoshlik tizimining asosiy mexanizmi sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, nikoh ikki shaxs o‘rtasidagi shaxsiy munosabat emas, balki ikki oila yoki ijtimoiy guruh o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi tizim hisoblanadi.[3]

Tadqiqot natijalarida ham oila kelib chiqishiga berilgan ahamiyat aynan shu nazariy yondashuvni tasdiqlaydi. Demak, zamonaviy o‘zbek jamiyatida nikoh hali ham qarindoshlik aloqalarini mustahkamlovchi ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Tadqiqot natijalari ota-onaning nikoh tanlovidagi roli ham muhim ekanini ko‘rsatdi. Respondentlarning aksariyati ota-onaning fikri muhim ekanini ta’kidlagan, biroq yakuniy qaror shaxsga tegishli bo‘lishi kerakligini bildirgan.

Bu holat jamiyatda individualizm va kollektivizm elementlari birgalikda mavjud ekanini ko‘rsatadi. Bir tomondan, yoshlar shaxsiy tanlovni muhim deb biladi. Ikkinchi tomondan esa ota-onaning roziligi va maslahatini ham muhim deb hisoblaydi. Bu esa nikoh masalasida “muzokarali model” shakllanayotganini ko‘rsatadi. So‘rovnoma natijalari gender tasavvurlarida ham muayyan o‘zgarishlar kuzatilayotganini ko‘rsatdi. Respondentlarning katta qismi turmushda teng moslashuv tarafdori ekanini bildirgan. Biroq ayrim respondentlar an’anaviy gender rollarini ham muhim deb hisoblagan.

Bu holat zamonaviy gender tengligi diskursi va an’anaviy madaniy stereotiplar o‘rtasidagi murakkab munosabatni aks ettiradi. Markaziy Osiyo jamiyatlarini o‘rgangan Deniz Kandiyoti ham ushbu mintaqada gender rollari transformatsiyasi murakkab jarayon ekanini ta’kidlaydi.[4] Tadqiqot natijalarida ham yoshlar orasida gender tengligi g‘oyasi mavjud bo‘lsa-da, an’anaviy gender qadriyatlari ham saqlanib qolganini ko‘rish mumkin. So‘rovnoma natijalarida nikohni “taqdir” sifatida talqin qilgan respondentlar ham sezilarli qismni tashkil etdi. Bu holat nikoh institutining faqat ijtimoiy yoki iqtisodiy qaror emas, balki ma’naviy va diniy mazmunga ega hodisa sifatida qabul qilinishini ko‘rsatadi.

An’anaviy jamiyatlarda nikoh ko‘pincha muqaddas ijtimoiy institut sifatida talqin qilinadi. Bunday qarashlar jamiyatning diniy qadriyatlari va madaniy mentaliteti bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek jamiyatida ham nikohning muqaddasligi haqidagi qarashlar keng tarqalgan bo‘lib, bu holat yoshlar ongida ham saqlanib qolganini tadqiqot natijalari tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yoshlarning nikoh haqidagi tasavvurlari murakkab transformatsiya jarayonida shakllanmoqda. Bir tomondan, shaxsiy tanlov, romantik sevgi va individual qarorlar muhim ahamiyat

[2] Anthony Giddens. The Transformation of Intimacy: Sexuality, Love and Eroticism in Modern Societies. Stanford: Stanford University Press, 1992.
[3] Claude Lévi-Strauss. The Elementary Structures of Kinship. Boston: Beacon Press, 1969.
[4] Deniz Kandiyoti. “Women, Islam and the State in Central Asia”. Central Asian Survey, 1991.

kasb etmoqda. Ikkinchi tomondan esa qarindoshlik tizimi, ota-ona avtoriteti va an'anaviy madaniy qadriyatlar hali ham muhim rol o'ynamoqda.

Shu sababli zamonaviy o'zbek jamiyatidagi nikoh modelini an'anaviy va zamonaviy elementlarning uyg'unlashuvi natijasida shakllanayotgan ijtimoiy institut sifatida talqin qilish mumkin.

Xulosa:

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda yoshlarning turmush o'rtog'ini tanlash haqidagi tasavvurlarini antropologik va etnologik yondashuv asosida tahlil qilishga qaratildi. Onlayn so'rovnoma natijalari yoshlar ongida nikoh masalasi murakkab va ko'p qatlamli madaniy fenomen ekanini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlar nikohni ko'pincha romantik hissiyotdan ko'ra ko'proq hayotiy barqarorlik va ijtimoiy tartib bilan bog'lashadi. Respondentlarning katta qismi nikohni barqaror hayot qurish vositasi sifatida talqin qilgani nikohning funksional ahamiyati hali ham yuqori ekanini ko'rsatadi. Bu holat nikoh institutining jamiyatdagi ijtimoiy tartibni saqlashdagi rolini tasdiqlaydi.

Turmush o'rtog'ini tanlash mezonlarida xarakter, tarbiya va ma'naviy qadriyatlarning ustunligi yoshlar ongida axloqiy-madaniy kapital muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Bu esa o'zbek jamiyatida nikoh tanlovi faqat iqtisodiy yoki tashqi omillarga emas, balki madaniy va axloqiy mezonlarga ham asoslanishini bildiradi.

Tadqiqot natijalari shuningdek qarindoshlik tizimining hanuz muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Respondentlarning katta qismi oila kelib chiqishini muhim omil sifatida baholagan. Bu esa nikohning faqat ikki shaxs o'rtasidagi munosabat emas, balki ikki oila va qarindoshlik tizimlarini bog'lovchi ijtimoiy institut ekanini ko'rsatadi. Etnologik nuqtai nazardan qaralganda, bu holat nikohning etnomadaniy tizimni saqlashdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ota-onaning nikoh tanlovidagi roli ham tadqiqot natijalarida muhim o'rin tutdi. Respondentlarning aksariyati ota-ona maslahatini muhim deb hisoblaydi, biroq yakuniy qaror shaxsga tegishli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu holat zamonaviy o'zbek jamiyatida nikoh masalasi individual tanlov va kollektiv qadriyatlar o'rtasidagi muvozanat asosida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Gender tasavvurlarida ham muayyan transformatsiya kuzatiladi. Respondentlarning katta qismi turmushda teng moslashuv tarafdori bo'lsa-da, an'anaviy gender stereotiplari ham saqlanib qolgan. Bu esa zamonaviy gender diskursi va an'anaviy madaniy tasavvurlar o'rtasida muayyan tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijalaridan biri nikohning ontologik talqinidir. Respondentlarning sezilarli qismi nikohni "taqdir masalasi" sifatida qabul qilgan. Bu esa nikohning faqat ijtimoiy institut emas, balki ma'naviy va diniy mazmunga ega hodisa sifatida ham talqin qilinishini ko'rsatadi. Bunday qarashlar o'zbek jamiyatining madaniy mentaliteti va diniy qadriyatlari bilan bog'liq.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda yoshlarning nikoh haqidagi tasavvurlari transformatsiya jarayonida ekanini ko'rsatadi. Individual tanlovning kuchayishi, gender tengligi haqidagi qarashlarning paydo bo'lishi va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri nikoh institutining zamonaviylashayotganini bildiradi. Biroq shu bilan birga qarindoshlik tizimi, ota-ona avtoriteti va an'anaviy qadriyatlar hali ham muhim rol o'ynamoqda.

Shu sababli zamonaviy o'zbek jamiyatida nikoh modelini to'liq an'anaviy yoki to'liq zamonaviy deb baholab bo'lmaydi. Aksincha, u an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy jarayonlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanayotgan transformatsion model sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, yoshlar orasida nikoh va oilaviy munosabatlar haqida ilmiy asoslangan ma'rifiy ishlarni kuchaytirish muhimdir. Ikkinchidan, gender tengligi va o'zaro hurmat tamoyillarini targ'ib qilish orqali barqaror oilaviy munosabatlarni shakllantirish mumkin. Uchinchidan, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining nikoh institutiga ta'sirini chuqurroq o'rganish kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, yoshlarning nikoh haqidagi tasavvurlarini o‘rganish nafaqat oilaviy munosabatlarni, balki jamiyatdagi madaniy transformatsiya jarayonlarini ham tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Claude Lévi-Strauss. The Elementary Structures of Kinship. Boston: Beacon Press, 1969.
2. Alfred Radcliffe-Brown. Structure and Function in Primitive Society. London: Cohen & West, 1952.
3. Bronisław Malinowski. The Family among the Australian Aborigines. London: University of London Press, 1913.
4. Anthony Giddens. The Transformation of Intimacy: Sexuality, Love and Eroticism in Modern Societies. Stanford: Stanford University Press, 1992.
5. Deniz Kandiyoti. “Women, Islam and the State in Central Asia”. Central Asian Survey, 1991.
6. Jack Goody. Production and Reproduction: A Comparative Study of the Domestic Domain. Cambridge: Cambridge University Press, 1976.
7. Ernest Gellner. Muslim Society. Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
8. Peter Berger., Thomas Luckmann. The Social Construction of Reality. New York: Anchor Books, 1966.
9. Anthony Giddens. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. Stanford: Stanford University Press, 1991.
10. Shirin Akiner. Islam, the State and Ethnicity in Central Asia. London: Royal Institute of International Affairs, 1997.